

# III bo'lim. Men va mening fazilatlarim

17-18-darslar

## MEN – INSONMAN

*Bobolarning hikmati  
Hayotga yorug' yo'ldir.  
Otang bolasi bo'lma,  
Odam bolasi bo'l, der.*

*Bu so'zni ilk bor menga  
O'rgatgan otam edi.  
Men otam farzandiman,  
U esa odam edi.*

*Erkin Vohidov*



1. "Inson" deganda nimani tushunasiz?
2. Hamma odamlar bir xilmi? Nima uchun?

Akmal, qara, maktabimizda qancha ko'p o'quvchilar bor.



To'g'ri aytasan, lekin ularning hammasi har xil.  
Masalan, Sarvar rasmni o'xshatib chiza oladi.



Aziza mental arifmetikaga borar ekan.  
U katta-katta sonlarni xayolida hisoblaydi.



Ijod qilish, yaratish insoniy xususiyatdir. Inson o'z mehnati bilan atrofidagi olamni yanada go'zal qiladi, o'zi ham kamol topib boraveradi.



Rasmlarga qarang. Undagi biror qahramonni xuddi o'zingiz yaxshi taniydigandek tasvirlab, qisqa hikoya tuzing. Ijodiy fikrlang, berilgan so'zlardan foydalaning.



**Foydalanish uchun so'zlar:** ismi, yoshi, tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, qiziqishlari.

## Iste'dodlar kuni



Yaqinda ustozimiz Nargiza Shuhratovna "Iste'dodlar kuni" tanlovini tashkil qildilar. Hamma bu tanlovda o'z qobiliyatini namoyish qildi.

Do'stim Aziz yog'ochdan kema yasadi. Madina xorazmcha raqsga tushdi. U juda qobiliyatli va sahnada o'zini erkin tutadi. Komila ona haqida she'r o'qib berdi. She'r juda ta'sirli ekanidan tomoshabinlar ko'zlariga yosh oldilar.

Mening ham qobiliyatlarim ko'p. Men yana kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Bir kuni maktabda "Yosh zukkolar" tanlovi o'tkazildi. Men va dugonam Mubina yakuniy bosqichgacha yetib bordik. Biz bir xil miqdorda ball yig'dik. Shunda bizga qo'shimcha murakkab savol berdilar. Men unga to'g'ri javob berdim va tanlovda g'olib bo'ldim. Shu kuni men o'zgachaligimni his qildim.



- 1.** Ustoz Nargiza Shuhratovna nima uchun "Iste'dodlar kuni" tanlovini tashkil qildilar?
- 2.** Tanlovda g'olib bo'lgan qizcha nimani his qildi?
- 3.** Qizcha qaysi iqtidor egalari haqida hikoya qildi?
- 4.** Siz qaysi ishlarni juda yaxshi bajarasiz?
- 5.** Siz do'stlaringizga nimalarni o'rgata olasiz?



Do'stlaringizdan nimani o'rganishingiz mumkinligini o'ylab ko'ring.

## Dunyoni lol etgan sozanda



Behzod Abduraimovning onasi musiqa o'qituvchisi edi. U onasining pianinoda chalgan kuylarini tinglab, yosh bolaligidan musiqaga mehr qo'ydi. Unga pianino chalishni ham onasi o'rgatdi.

Musiqa matabiga o'qishga kirgan paytidayoq Behzod murakkab kuylarni ham bemalol chalar edi.


Musiqa unga butun umr hamroh bo'ldi. Behzod erta tongdan musiqa mashg'ulotlariga borib, keyin esa boshqa darslar bilan shug'ullanar edi. Maktabdan kelgach, yana fortepiano chalishda davom etar, mashhur musiqachi bo'lism uchun tinimsiz mehnat qilar edi.

Behzod O'zbekiston davlat konservatoriyasida milliy simfonik orkestri jo'rligida ilk bor konsert bergenida atigi sakkiz yoshda edi. Uning ijrosi tomoshabinlarga shunday manzur bo'ldiki, yosh sozandani tik turib, gulduros qarsaklar bilan olqishlashdi.

Behzod Abduraimov o'n olti yoshida mohir sozanda bo'lib yetishdi. Amerika va Italiyaning eng nufuzli musiqa maktablari uni o'qishga taklif qildi. Behzod mahoratini yanada oshirish uchun Italiya maktabini tanladi.

Hozirda Behzod tez-tez gastrol safarlarga borib turadi. Tokio, Sidney, Parij, London va boshqa shaharlardagi muxlislar uning konsertlarini sabrsizlik bilan kutishadi. Behzod Abduraimov klassik musiqaning dunyodagi eng mohir ijrochilaridan biridir.

- 1.** Behzod muvaffaqiyatga erishish uchun qancha mehnat qilishi kerak edi?
- 2.** Behzodning qobiliyati odamlarga qanday foyda keltiradi?
- 3.** Siz o'zingizni qanday qobiliyatga egaman deb o'ylaysiz?



### Qobiliyatingizni aniqlashga yordam beradigan belgilar:

- 1.** Siz bu ishni doimo qilishni xohlaysiz.
- 2.** Bu ish sizga zavq beradi.
- 3.** Atrofingizdagilar sizda shu ishga qobiliyat borligini aytadilar.



Iste'dod – biror ishdagi yorqin, noyob qobiliyatdir.

Har bir inson o'ziga xos bo'ladi, har bir insonda qandaydir iste'dod bo'ladi. Kimningdir yozuvi chiroyli bo'ladi, kimdir hikoya yozadi, kimdir sportda yaxshiroq natija ko'rsata oladi.

Eng muhimi – bizga berilgan bu qobiliyatni, iste'dodni insonlarga foydali ishlarga sarflash kerak. Ana shunda nafaqat o'z hayotingizni, balki atrofingizdagilarning ham hayotini o'zgartirasiz, yanada go'zal, qulay, mazmunli qilgan bo'lasiz.



### Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

- Biror ishni a'llo darajada bajarsangiz o'zingizni qanday his qilasiz?
- Biror ishni qila olmasangiz-chi?
- Iste'dodni qanday qilib rivojlantirish kerak?
- Qobiliyatingizni qanday qilib o'zingiz va atrofdagilar uchun foydali ishga yo'naltirishingiz mumkin?



Rasmlarga qarang. Bu bolalar qanday qobiliyatlarini rivojlantirmoqda? O'z iste'dodingizni rivojlantirish rejasini tuzing.



### O'ylab ko'ring va gaplarni to'ldiring.

Iste'dodimni rivojlantirish uchun ... qilaman.

Biror ishni qila olmasam, ... .

Mening iste'dodim ...ga foydali bo'lishi mumkin.



Iste'dodli tanishlaringiz bormi?  
Ular nima bilan shug'ullanadi?